



TA'LIM JARAYONIDA MOBIL TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHGA KREATIV VA INNOVATSION USLUBIY YONDASHUVLAR

Usmonov Akbar Ibrohim o'g'li

*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Televizion va media
texnologiyalari kafedrası o'qituvchisi
Email: akbar.usmonov.93@mail.ru*

Annotasiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonida mobil texnologiyalardan foydalanishga oid kreativ va innovatsion uslubiy yondashuvlar tahlil qilinadi. Mobil qurilmalar va raqamli ilovalarning ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni, talabalarning bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirish imkoniyatlari hamda o'qitish jarayonini individuallashtirishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, mobil ta'limni joriy etishda qo'llaniladigan zamonaviy metodlar va ularning amaliy natijalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Mobil texnologiyalar, mobil ta'lim, innovatsion yondashuv, kreativ metodlar, raqamli ta'lim, mobil ilovalar, gamifikatsiya, ta'lim samaradorligi.

Аннотация: В данной статье анализируются креативные и инновационные методические подходы к использованию мобильных технологий в образовательном процессе. Освещается роль мобильных устройств и цифровых приложений в повышении эффективности обучения, возможности усиления мотивации студентов к получению знаний, а также значение индивидуализации учебного процесса. Кроме того, рассматриваются современные методы внедрения мобильного обучения и их практические результаты.

Ключевые слова: Мобильные технологии, мобильное обучение, инновационный подход, креативные методы, цифровое образование, мобильные приложения, геймификация, эффективность обучения.

Abstract: This article analyzes creative and innovative methodological approaches to the use of mobile technologies in the educational process. The role of mobile devices and digital applications in increasing learning effectiveness, enhancing students' motivation for learning, and individualizing the teaching process is highlighted. In addition, modern methods of implementing mobile learning and their practical outcomes are discussed.

Keywords: Mobile technologies, mobile learning, innovative approach, creative methods, digital education, mobile applications, gamification, learning effectiveness.

Kirish

Jahonda xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha yangi ta'lim konsepsiyasida "Ta'lim – taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlarga yetkazuvchi muhim faoliyat" deb e'tirof etilgan. Sifatli ta'lim berish, o'rganuvchi va talabalarning





malaka hamda qobiliyatlarini yuqori darajada rivojlantirish, elektron axborot-ta'lim resurslarini yaratish, ta'lim jarayonini modellashtirishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilashda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilmoqda.

Jahonda elektron ta'lim metodikasini takomillashtirish, ta'lim jarayoniga elektron ta'limni joriy etishning metodik asoslarini takomillashtirish, zaruriy axborot infratuzilmasini yaratish, masofali ta'limni tashkil etish, ochiq kodli platformalar asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish va maqsadli yo'naltirish, shu bilan birga oliy ta'lim muassasalarida elektron ta'lim tizimi orqali o'qitishning o'quv-uslubiy faoliyat mazmunini takomillashtirish metodlarini tashkillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda ta'lim tizimiga elektron ta'limni joriy etish birinchi navbatda jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, ta'lim sohasini axborotlashtirish, axborot ta'lim resurslarini ishlab chiqish, reflektiv texnologiyalarni ishlab chiqish, shaxsiy axborot xavfsizligini ta'minlashning me'yoriy asoslari yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son farmonida "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" kabi ustuvor vazifalar etib belgilandi. Natijada ochiq kodli platformalarning didaktik ta'minoti, elektron ta'lim metodikasini takomillashtirish, shakl, metod, vositalarini qo'llash samaradorligini oshirish imkoniyatlari kengaydi.

Materiallar va usullar

Akademik M.M. Zinovkinning ixtirochilik muammolarini yechish nazariyasidan foydalanish asosida talabalarning ijodiy fikrlashi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimi shakllantirildi. Ushbu yondashuv uzluksiz kreativ ta'limning ko'p bosqichli tizimini rivojlantirish, bilim va ko'nikmalar tuzilmasini optimallashtirish, mustaqil ta'limni kuchaytirish, darslarni yanada samarali tashkil etish hamda o'quv materialini talabalarga tushunarliroq shaklda taqdim etish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Mazkur tadqiqot muallifiga talabani ta'lim ehtiyojlari va rag'batlarini rivojlanib borayotgan kreativ o'quv jarayoni imkoniyatlari bilan uyg'unlashtirishga erishish imkonini berdi.

Bu qoida o'qituvchi va talabani bevosita o'zaro ta'sirlashishi vaqt va makonda sezilarli darajada cheklangan bo'lsa, masofaviy va eksternal ta'lim tizimida alohida ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan o'qituvchining o'quv jarayonini boshqarish roli ortib boradi. Tadqiqot muallifi bu muammoni mobil ta'lim platformasini (MTP) kasbiy tayyorlash jarayonida talabani ijodiy tafakkurini kompyuter intellektual qo'llab-quvvatlash va olimlar taklif etgan ko'p bosqichli evristik muloqotlar tizimidan foydalanish yo'li bilan yechishga urinib ko'rdi.

MTP o'quv va kasbiy-ijodiy faoliyat jarayonida talabalarning o'zaro va o'quv





muhiti o'rtasidagi o'z-o'zi o'rganish va dialogik o'zaro ta'sirlashishning aktiv didaktik vositasi hisoblanadi.

MTP ning asosini quyidagilar tashkil etadi:

- 1) tizimli va muammoli-algoritmik yondashuvlar;
- 2) ijodkorlik uslubiylari;
- 3) mobil ta'lim platformasi nazorat-o'qitish dasturlari to'plami;
- 4) zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalari;
- 5) evristik dialoglarning kreativ uslubiylati va boshqalar.

"Talaba – mobil ta'lim platformasi" evristik muloqot talabalarning ijodiy o'zini-o'zi rivojlanishini bilvosita pedagogik boshqarish shakli hisoblanadi. MTP asosida talabani kasbiy va ijodiy salohiyatini shakllantirish darajalarini, kasbiy harakatchanligi va raqobatbardoshligini, shuningdek, keyingi ijodiy o'zini-o'zi rivojlantirishga tayyorligini obyektiv va har tomonlama baholash uchun talabani kasbiy yo'nalishini ko'p bosqichli nazorat qilish uslubi amalga oshiriladi.

Ijodkor shaxs o'zining kasbiy-ijodiy o'zini-o'zi rivojlantirishni aktiv va maqsadli amalga oshirishi kerak, uning mohiyati quyidagi yo'nalishlarning integratsiyalanishi orqali aniqlanadi:

- 1) kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil egallash;
- 2) ijodiy fikrlashda o'z-o'zini rivojlantirish va ijodiy shaxsiy fazilatlarida o'z-o'zini tarbiyalash;
- 3) eruditsiya va "intellektual madaniyat"ning mustaqil rivojlantirish, muammolarni ko'ra olish, ijodiy muammolarni qo'yish va tabiiy ravishda yecha olish qobiliyati;
- 4) kasbiy faoliyatda kasbiy yo'nalish va ijodiy o'zini-o'zi anglash darajasini oshirish;
- 5) hayot davomida keyingi kasbiy va ijodiy o'zini-o'zi takomillashtirishga tayyorlikni shakllantirish.

Pedagogika fanida "ko'p o'lchovli evristik muloqot" (KO'EM) tushunchasi evristik muloqotlar kreativ uslubiylati konsepsiyasining asosiy qoidalarini ko'rsatadi.

Ko'p o'lchovli evristik muloqot quyidagi to'rtta asosiy funksiyalari birlashtiradigan va amalga oshiradigan muloqot hisoblanadi:

- 1) muloqotli o'zaro ta'sirlashish darajasi;
- 2) talabalarning kasbiy tayyorgarligi sifati ko'rsatkichlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish va ularning tobora murakkablashib borayotgan muammoli vazifalarni yechish qobiliyati;
- 3) ko'p darajali kompyuterda intellektual qo'llash;
- 4) talabalarning bosqichma-bosqich kasbiy-ijodiy o'z-o'zini rivojlantirishi.

Evristik muloqot texnologiyasi kompyuterda intellektual qo'llash bilan ko'p o'lchovli evristik muloqotlardan foydalanish (MTP ga ega KO'EM) va pozitiv evristik muloqot munosabatlarini yaratish hisobiga o'z maqsadlariga samarali mustaqil erishishni ta'minlaydigan kreativ ta'lim usullari va vositalari to'plami hisoblanadi.

Evristik muloqot munosabatlari "Talab – talaba" (T-T), "Talaba – o'qituvchi"





(T-O'), "Talaba – ijodiy guruh" (T-IG) o'quv-ijodiy faoliyat subyektlarining evristik muloqotlar orqali o'zaro aloqalari va o'zaro ta'sirlashishi hisoblanadi.

Bo'lajak menejerlarning kasbiy yo'nalishini rivojlantirish va kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish maqsadida talabalar tomonidan "Raqamli media va TV texnologiyalar" fanini o'zlashtirish jarayonida mobil ta'lim platformasiga ega KO'EMning qo'lanishi samaradorligiga quyidagilar hisobiga erishiladi:

1) talabaning o'zini-o'zi anglashi, o'zini-o'zi boshqarishi, o'zini-o'zi rivojlantirishi, o'zini-o'zi takomillashtirishi va o'zini-o'zi nazorat qilishini aktivlashtirish;

2) ijodiy kasbiy vazifalarning turlari va o'ziga xos xususiyatlarining talabaning individual o'ziga xos xususiyatlariga muvofiqligi;

3) evristikalar bankining, evristik texnika va ijodiy masalani yechish usullarining bu masala turi va mazmuniga muvofiqligi.

KO'EM tizimining tuzilmasi 1-rasmda, uning modeli tasvirlangan.

Natijalar va muhokama

Talaba o'z ta'lim faoliyatida qanchalik aktiv ishtirok etsa, uning individual ijodiy o'zini-o'zi anglashi shunchalik to'liq bo'ladi.

Individual ta'lim trayektoriyasini tashkil etish texnologiyasiga muvofiq, nafaqat talaba, balki uning ta'lim dasturi ham rivojlantiriladi. Talaba o'z ta'limining subyekti, konstruktori, o'z bilimining to'laqonli manbai va tashkilotchisi bo'la oladi va bo'lishi kerak.



1-rasm. Ko'p o'lchovli evristik muloqotlar tizimining tuzilmasi

Belgilangan nazariy yondashuvlarga asoslanish bilan talabalarning topshiriqlar tizimi yordamida aktiv ishlashi o'quv samaradorligini oshiradi, o'quv jarayonida talabaning ruhiy holatini optimallashtiradi, degan xususiy gipoteza shakllantirildi.

Ko'pchilik talabalarda qiyinchiliklarni, nostandart muammoli vaziyatlarni yechishda ko'nikma va qobiliyatlarning yetishmasligini aniqlashga imkon berdi. Bu ma'lum darajada talabalarning individual ijodiy xususiyatlari va ijodiy





qobiliyatlarini anglamasligiga bog'liq.

So'rovlar natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, talabalar uchun quyidagilar muhim va qiziqarli:

- 1) o'qituvchidan tushuntirishlar bilan birga fan bo'yicha ma'lumotlarni olishdan tashqari, ularning kasbiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirish va kelajakdagi kasbiy faoliyatida tajriba orttirish;
- 2) yangi axborot va qonuniyatlarni mustaqil izlash malakalarini egallash;
- 3) kasbiy muammolarni yechish uchun mustaqil maqsadli izlashning umumiy usullari bilan tanishish;
- 4) individual muammoli vaziyatlar va vazifalarni yechishning xususiy usullari tezda unutiladi, umumiy mahorat, umumiy yondashuv uzoq vaqt saqlanib qoladi;
- 5) talabalarning katta qismi umumiy ko'nikmalarni kerakli darajada o'zlashtirmaydi va notanish yoki kam ma'lum bo'lgan muammoga duch kelish bilan unga qanday yondashishni bilmaydi.





“Raqamli media va TV texnologiyalar” fanini o‘zlashtirishning an’anaviy usuli talabani individual xususiyatlari, qobiliyati va qiziqishlarini yetarlicha hisobga olmaydi, uning kasbiy va ijodiy aktivlashuviga, o‘z-o‘zini anglashiga yordam bermaydi.

Talabalar tomonidan amaliy topshiriqlarni bajarish natijalarini tahlil qilish bilan universitetda mutaxassislik fanlarni (shu jumladan “Raqamli media va TV texnologiyalar” fanini) o‘qitishning an’anaviy texnologiyalarining asosiy kamchiliklari aniqlandi:

1) o‘qituvchining bilimlar translyatori sifatidagi pozitsiyasi va talabalarning tayyor bilimlarni qayta tiklashga yo‘naltirilganligida ifodalanadigan pedagogik ta’sir obyekti sifatida talabani pozitsiyasi;

2) mustaqil o‘quv ishlarini bajarishda talabalarning yetarli bo‘lmagan aktivligi;

3) talabalarning tizimli, tanqidiy, muammoli va ijodiy tafakkurini rivojlantirish darajasining yetarli emasligi;

4) talabalarning o‘rganilayotgan ma’lumotlarni tahlil qila olmasligi, o‘z tajribasini aks ettirishning rivojlanmaganligi, o‘zini mos baholay olmasligi va boshqalar.

Tasdiqlash eksperimentining natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalar o‘qitishning noan’anaviy shakllari va usullariga katta qiziqish bildiradi. Ular fikrlashning katta moslashuvchanligiga (harakatchanligiga) ega va o‘qituvchi bilan muloqotga osonlik bilan javob berishadi. Ular “ta’limdan” charchagan, “o‘rganishni” xohlashadi. Va agar o‘qituvchi ta’lim jarayonida innovatsiyalardan, evristik va ijodiy o‘rgatish elementlaridan foydalansa, talabalar bu jarayonga xursandchilik bilan jalb qilinadi. Ular tashqi kuzatuvchilar bo‘lib qolmaydi, balki ta’lim faoliyatida teng huquqli hamkorlar bo‘lib qolishadi. Shu bilan birga, kasbiy tayyorgarlik samaradorligi va uning natijalari sifati sezilarli oshadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ta’lim jarayonida mobil ta’lim platformalardan foydalanish talabalarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirib, ularning ta’limga bo‘lgan qiziqishi va faolligini oshiradi. Kreativ va innovatsion uslubiy yondashuvlar asosida tashkil etilgan mobil ta’lim jarayoni o‘qitishning an’anaviy usullarini boyitib, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni hal etish va raqamli kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Mobil ilovalar, interaktiv platformalar va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan oqilona foydalanish ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, mobil texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish va ulardan samarali foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’limni raqamlashtirishga oid farmon va qarorlari.
2. Ismoilov R., Xolmatov B. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2021.





3. Kukulska-Hulme A., Traxler J. Mobile Learning: A Handbook for Educators and Trainers. – London, 2019.
4. Sharples M. Innovations in Mobile Learning. – Springer, 2020.
5. Internet manbalari: www.edu.uz, www.ziyonet.uz

